SIRDARYO VILOYATI XOVOS TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 9-aprel | 155-9-129-Q/25 | Xovos tuman hokimligi

Sirdaryo viloyati hokimining 2025-yil 2-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-martdagi “Aholi tomorqalari va dehqon xo‘jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 191-son qaror ijrosi haqida”gi 140-9-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-martdagi “Aholi tomorqalari va dehqon xo‘jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 191-son hamda Sirdaryo viloyati hokimining 2025-yil 2-apreldagi 140-9-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 21^1-moddalariga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-martdagi “Aholi tomorqalari va dehqon xo‘jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 191-son hamda Sirdaryo viloyati hokimining 2025-yil 2-apreldagi 140-9-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan:

Aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomi 1-ilovaga;

Aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etishni muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika shtabi tarkibi va hududiy shtablarning namunaviy tarkibi 2-4-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

Aholi tomorqalarining yer maydonlarini xatlovdan o‘tkazish va ularda yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hisobini yuritish yo‘nalishida:

bir oy muddatda “Online mahalla” elektron platformasida dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqasidagi mavjud yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining axborot tizimlaridagi ma’lumotlar asosida onlayn rejimda shakllantirishi;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi hamda Bosh prokuratura bilan birgalikda 2025-yil 1-iyunga qadar aholi tomorqalarining yer maydonlari to‘liq xatlovdan o‘tkazilishini yakunlab, ularning alohida hisobi yuritilishini yo‘lga qo‘yishi;

ikki oy muddatda aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hisobini yuritish uchun “Online mahalla” platformasida ma’lumotlar bazasi yaratilishini hamda mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimining yordamchilari tomonidan tizimli ravishda ma’lumotlarning yangilab borilishini va monitoringi yuritilishini ta’minlashi inobatga olinsin va ijroga qaratilsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari I.Nurmatov

bir kun muddatda aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomda nazarda tutilgan ishchi guruh tarkiblari hamda aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etishni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman shtablari tarkibini tasdiqlasin.

4. Aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etishni muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat shtabi ilovaga asosan tasdiqlansin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari I.Nurmatov, A.Bashbekov, tuman Fermerlar kengashi (F.Soatov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (I.Xo‘jayev), tijorat banklari bilan birgalikda, bir oy muddatda mahallalarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining muayyan turiga ixtisoslashtirish hisobidan dastlabki bosqichda 100 ta namunali mahalla, kelgusida ularning sonini 200 taga yetkazish bo‘yicha reja-grafikni tasdiqlasin.

Namunali mahallalar joylashadigan tumandagi aholi tomorqalari va ijaraga berilgan yer maydonlarining 75 foizini bosqichma-bosqich bir xil turdagi yuqori daromadli mahsulotlar yetishtirish uchun qamrab olishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosari I.Nurmatov

mahallalarda har bir aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida 2025-yil 10-aprelga qadar viloyat va tuman shtablari bilan birgalikda mahallalarga tajribali agronom va yetakchi tadbirkorlarni jalb qilgan holda, ekiladigan ekin turlari va mahsulotlarni yetishtirish reja grafigini tasdiqlasin;

tijorat banklari va yetakchi tadbirkorlar yordamida mahsulotlarni yetishtirish, saqlash, saralash, qadoqlash va yetkazib berish bilan bog‘liq maqsadlarga moliyaviy ko‘maklashsin;

2025-yil 20-aprelga qadar aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlarida yetakchi tadbirkorlar yordamida yuqori daromadli, sifatli urug‘ va ko‘chatlarni tizimli yetkazib berish, ekish va har bir tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etsin;

2025-yil 1-mayga qadar xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining grantlar va kreditlari hisobidan mahallalarda amalga oshiriladigan “yashil” va resurs tejamkor loyihalarning manzilli ro‘yxatini shakllantirsin;

yetakchi tadbirkorlar, agronomlar, xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb qilgan holda, bir hafta muddatda tomorqa egalarini yil davomida o‘qitish reja grafigini tasdiqlasin va joylarda o‘qitishni tashkil etsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari I.Nurmatov va A.Bashbekov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.YO‘LDOSHEV**

Xovos tumani hokimining
2025-yil 9-apreldagi
155-9-129-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Aholi tomorqasi va ijara asosida ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etishni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman shtabi
TARKIBI

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.	I.Nurmatov	Tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i, **shtab rahbari**
2.	A.Bashbekov	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
3.	S.Pulatov	Tuman hokimining Qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
4.	A.Rasulov	Tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
5.	Lavozim bo‘yicha	Tijorat banklari
6.	Sh.Karimqulov	Agrosanoat AT nazorat qilish inspeksiyasining tuman bo‘limi boshlig‘i
7.	A.Abduxoliqov	Tuman tabiat resurslari bo‘limi boshlig‘i
8.	A.Xaydarov	O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
9.	A.Tadjibayev	Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘i
10.	I.Xo‘jayev	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i, **shtab kotibi**

Izoh: *shtab tarkibiga viloyat hokimi tomonidan o‘zgartirish kiritilishi mumkin.*